



SENSOR BUZILISHI BO'LGAN BOLALARDA HISSIY-IRODAVIY SOHADAGI O'ZGARISHLAR

U.M.Utbasarova

Alfraganus

universiteti v.b dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15285509>

Annotasiya: ushbu maqolada sensor buzilishi bo'lgan bolalarda diqqatning tarqoqligi hamda bola hayotida turli ko'nikmalarni o'zlashtirishda ihtiyoriy diqqatning o'rni keng yoritilgan.

Kalit so'z: autizm, diqqat, sidrom, sensor integrasiya, motor rivojlanish, iroda.

Bola hayotining dastlabki davrlaridanoq ta'lim olishni taqlid qilish orqali o'zlashtiradi. Kattalarga taqlid qilish jarayonida bola eng muhim ko'nikmalarni egallaydi. Biroq taqlid qilish va yangi ko'nikmalarni shakllantirish uchun to'g'ri faoliyat talab etiladi: Sensor funksiyaga asoslangan ixtiyorsiz diqqat (bu sezgi sohasi, miya po'stlog'i osti zonalarini bilan bog'liq), ya'ni bola nimanidir ko'rib, ko'rganini idrok qilganda yuzaga keladigan diqqat;

Motor funksiyaga asoslangan ihtiyoriy diqqat (irodaviy soha, miya po'stlog'i bilan bog'liq). Bola ko'rgan narsasini takrorlashi kerak, ya'ni iroda kuchi orqali (ihtiyoriy diqqat) tanasini yangi harakatga (ko'nikmaga) o'rgatishi lozim. Biroq ihtiyoriy diqqat sensor idrok jarayonida ham qo'shilishi mumkin. Bu hissiyotlarni tahlil qilish va ularga baho berish zarur bo'lganda yuzaga keladi (sensor analizator). Masalan, ovoz manbasini aniqlash, buyumning haroratini his qilish, predmetlarni belgilariga ko'ra ajratish .

Diqqatni qanday rivojlantirish mumkin? Ixtiyorsiz diqqat sensor integratsiyani yaxshilashga yordam beradi. Sensor tajribaning rivojlanishi bolaning idrok qilish, aloqa qilish, erkinligini kengaytirishga xizmat qiladi. Ihtiyoriy diqqat jismoniy faollikni rivojlantiradi, aniqrog'i, bolaning kuch sarflashini talab qiladigan mashq va harakatlarni bajarishga o'rgatadi. Bolaga osonlik bilan beriladigan narsa uning ihtiyoriy diqqatini rivojlantirmaydi va yangi neyron aloqalar hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

Motor neyron aloqalar faqat bola (va kattalar ham) yangi ko'nikma va harakatni egallaganda shakllanadi. Bu nimani o'zgartiradi? Bola ko'proq va unumli ishlaydi, murakkab mantiqiy masalalarni yechadi, o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq boshqaradi.

U hatto o'z tanasini iroda kuchi bilan boshqarishni o'rganadi.

Ihtiyoriy diqqatni rivojlantirishga nima yordam bermaydi?

Ixtiyorsiz jismoniy faollik (bola o'zi mustaqil harakat qiladi, yuguradi,





sakraydi va hokazo). Bolani irodaviy ishtirokisiz amalga oshiriladigan terapiyalar (masalan, elektro- va magnit stimulyatsiya, massajlar, akustik ta'sir va hokazo). Bu jarayonlar miya po'stlog'ida yangi neyron aloqalarning shakllanishiga yordam bermaydi, faqat ilgari shakllangan neyron aloqalarni faollashtiradi. Ya'ni, yangi ko'nikmalar hosil bo'lmaydi. Endi esa, nega barcha pedagoglar aynan ixtiyoriy diqqat bilan qiziqishini tushunib olaylik.

Fiziologik nuqtayi nazardan, diqqat - bu miyada uyg'onish jarayoni. Unda axborot neyron aloqalar shaklida saqlanadi. Uyg'onish impulsi (elektr signali) qayerga yo'naltirilishi va qaysi neyron aloqalari orqali o'tishi fikr va assotsiatsiyalarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon proyektor nuri kabi ishlaydi.

Agar bu nurlanish natijasida yangi neyron aloqalar shakllanmasa, o'rganish yuz bermaydi. Diqqat ixtiyoriy bo'lib qoladi, agar bola kuch sarflab, nurni kerakli tomonga yo'naltira olsa. Boshqacha aytganda, u o'z irodasini (miya po'stlog'ining tegishli qismlarini) faollashtiradi. Agar irodaviy komponent sust bo'lsa, diqqatni nazorat qilish qiyinlashadi. Ixtiyoriy diqqatning yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan asosiy muammo, ayniqsa ta'lim jarayonida. Masalan, sizga buxgalteriya hisobotini yozish kerak (bu miyaning bir qismi bo'lib, diqqatni jamlash jarayonini talab qiladi), lekin sizning fikrlaringiz kolbasa aksiyasi haqida (bu miyaning butunlay boshqa qismi ishlayotganini bildiradi). Siz e'tiboringiz chalg'iganini tushunasiz, o'zingizni boshqarishga harakat qilasiz va diqqatni hisobot tayyorlashga qaytarasiz. Bu jarayon ixtiyorsiz diqqatdan ixtiyoriy diqqatga o'tish hisoblanadi. Siz diqqatni qanchalik boshqara olsangiz, shunchalik unumli ishlaysiz, chunki bu holda diqqat mehnat jarayonida to'liq ishlatiladi.

Diqqatni boshqarish qiyinligining yana bir sababi – miyaning ma'lum qismlarida tez toliqish va charchash. Agar neyron bog'lanmalar kam bo'lsa, ushbu qism tez charchaydi, bu esa faollikni pasaytiradi va irodaviy boshqarish qobiliyatini cheklaydi. Aynan shu joyda odamlar tez asabiylashadi, shoshqaloqlik qiladi, qiziqishini yo'qotadi yoki, aksincha, jahl chiqaradi, yig'laydi va hokazo. Ushbu holatlarda korreksiya va kompensatsiya ishlari muhim ahamiyatga ega.

Irodaviy komponentni qanday mustahkamlash mumkin? Irodani rivojlantirish faqatgina maxsus mashqlar va vaziyatlar orqali mumkin, bunda odam o'z dangasaligi, istaklari, his-tuyg'ulari va charchog'ini yengib o'tishi kerak. Shuning uchun har safar boladan "yo'q, xohlamayman, qo'limdan kelmaydi" orqali vazifani bajarishini talab qilganingizda, uning irodaviy sohasini shakllantirasiz – va shu bilan birga o'zingizning ham! Bolaga haddan tashqari





erkinlik berish va uni ortiqcha erkalash rivojlanishga juda kam hissa qo'shadi. Bunday yondashuv bilan bola o'zini boshqarishni o'rganmaydi. Bundan tashqari, tez charchash, diqqat yetishmovchiligi va ishga qiziqmaslik – aslida miyaning ushbu qismida neyron aloqalarning kamligidan dalolat beradi.

Amalda bu quyidagicha ko'rinadi:

“Bu menga qiziq emas”,

“Menga bu yoqmayapti”,

“U buni qilishni istamaydi” va hokazo.


Lekin, agar siz “xohlamayman”ni yengib, qo'ldan ushlab yordam bersangiz, balki ba'zida yosh bolalar singari ko'z yoshlar orqali ham bo'lsa, bola asta-sekin o'z irodasini tarbiyalay boshlaydi. “Natijalar yaxshilanmoqda va yig'lash kamaymoqda” - bu shuni anglatadiki, kerakli ko'nikmalar shakllanishi davomida yangi neyron bog'lanmalar hosil bo'ladi. Natijada miyaning charchagan qismi kamroq ishlaydi, diqqatni jamlash yengillashadi. Haftalar va oylar o'tadi. Siz ishlashda davom etasiz, va bola borgan sari yaxshiroq natijalarga erishadi. Endi u yig'lamaydi, lekin unda odat paydo bo'ladi.

Ana shunda u qiziqish va motivatsiya sezishni boshlaydi! Shuning uchun, agar maqsadingiz bolaning nutqi, jismoniy ko'nikmalari va tafakkurini rivojlantirish bo'lsa, unda uning zaif tomonlariga e'tibor qaratish, intizomni shakllantirish va eng muhimi, “mashg'ulot” va “o'yin” tushunchalarini chalkashtirmaslik muhimdir!

Mashg'ulot paytida biz avvalo foydali narsalarni bajarishimiz kerak, hatto bola buni qiziq emas deb hisoblagan taqdirda ham. Lekin mashg'ulotlar orasidagi tanaffus vaqtida unga dam olish yoki sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanishga ruxsat berish mumkin

Exolaliya. Kommunikatsiya muammolari sohasidagi yana bir mustahkam o'rnashgan afsona exolaliya muammosining ildizi faqat nutq rivojlanishi bilan bog'liq degan fikrdir. Odatda, mutaxassislar bola nutqi rivojlangan sari exolaliya kamayib boradi, deb ta'kidlashadi. Biroq, amaliyotda bolada grammatik jixatdan shakllangan nutqqa ega bo'lgan bolalarda ham exolaliyaning mavjudligi ko'plab misollari bilan isbotlangan. Barcha sir shundaki, bolada faqatgina nutqning shakllanishidagi buzilishlar emas, balki ihtiyoriy diqqatning yetishmasligi ham exolaliyani yuzaga keltirishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'lum vaziyat va holatda bu buzilish qaysi sababga ko'ra namoyon bo'layotganini aniqlash uchun bolaning nigohini kuzatish lozim.

Butun muloqot davomida bolaning nigohini tahlil qilish muhim. Bu uning kommunikatsiyaga jalb etilganligining asosiy indikatorlaridan biri hisoblanadi.





Agar bola nigohi chetga qaragan holatda takrorlangan iborani aytilsa – bu bolaning aynan shu lahzada ixtiyoriy diqqati yo'qligini ko'rsatadi. Agar nigoh sizga qaratilgan bo'lsa va takrorlangan ibora aytilsa – bu bola hali mustaqil ravishda to'g'ri javobni shakllantira olmasligini ko'rsatadi. Tafsilotlarga to'xtaydigan bo'lsak sabab – diqqat tanqisligi natijasidir. Exolaliya bolada diqqatining tarqoqligi (ruhiy bo'shashish) va charchagan vaqtida faol namoyon bo'ladi. Ya'ni, takrorlangan ibora tafakkur jarayonidan o'tmagan, balki "bir quloqdan kirib, og'izdan to'g'ridan-to'g'ri chiqadi". Bu holat to'g'ridan-to'g'ri bosh miyaning qo'shimcha tuzilmalari ishga tushadi, lekin miya po'stlog'i (ixtiyoriylik uchun javobgar bo'lgan sohasi) amalda ishtirok etmaydi. Bola bu lahzada nima deyotganini anglamaydi.

Bu holatda har biro nada nima qilish kerak degan savol tug'iladi? Sizning vazifangiz – uni bu holatdan chiqarish (qo'llarini sillash, uni chaqirish, stolga taqillatish yoki boshqa usul bilan diqqatini jalb qilish). Bolada faqat ixtiyoriy nigohni ko'rgandan so'ng savollar berish kerak. Diqqat tanqisligi tufayli yuzaga kelgan exolaliyaning oldini olish, asosan, ixtiyoriy/ixtiyorsiz diqqatni rivojlantirishdan (80% holatda) iborat. Bu esa quyidagi mashqlar yordamida amalga oshiriladi:

☒ sensor integratsiyasi,

☒ motor rivojlantirish.

Sabab-nutqning yetarli rivojlanmaganligida har bir ulg'ayayotgan bola nutqni o'zlashtirish jarayonida kattalarning gaplarini mexanik ravishda takrorlash yordamida o'rganadi. Tashqaridan bu exolaliyaga o'xshab ko'rinishi mumkin. Bu bosqich har bir bolada uchraydi va tabiiy ravishda kuzatiladi. Lekin agar bola rivojlanish me'yorlariga mos kelsa, u bu bosqichni juda tez yengib o'tadi. Odatda, u kattalardan eshitgan iborani takrorlaganda, kattalar uni to'g'irlab, qanday gapirish kerakligini ko'rsatib beradilar. Neyrotipik bolalar buni juda yaxshi eslab, qayta shakllantira oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дробинская, Анна Олеговна. Школьные трудности «нестандартных» детей / А. О. Дробинская. – Москва : Школьная пресса, 2006. – 126 с.
2. Лютова, Елена Константиновна. Тренинг эффективного взаимодействия с детьми : комплексная программа / Елена Лютова, Галина Моница. – Москва : Сфера ; Санкт-Петербург : Речь, 2008. – 190 с. : ил.
3. Саматова, Альбина Вильсуровна. Коррекция проявления аутичных черт у детей раннего возраста с глубокими нарушениями зрения / А. В.





Саматова ; Российская государственная библиотека для слепых. – Москва : РГБС, 2012. – 59 с.

4. Архипов, Б. А. Нарушения восприятия «себя», как основная причина формирования искаженного психического развития особых детей / Б. А. Архипов, Е. В. Максимова, Н. Е. Семенова. – Москва : Диалог МИФИ, 2012. – 160 с.

5. Алвин, Дж. Музыкальная терапия для детей с аутизмом / Дж. Алвин, Э. Уорник ; перевод с английского Ю. В. Князькиной. – Москва : Теревинф, 2008. – 2008 с.

